

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHAYXISLAMOV NURSULTON ZAMON O‘G‘LI

**ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LINGVISTIK
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (5-7-SINFLAR MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Shayxislamov Nursulton Zamon o‘g‘li

Ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish (5-7-sinflar misolida).....3

Шайхисламов Нурсултон Замон углы

Совершенствование методики формирования лингвистических компетенций учащихся на уроках родного языка (на примере 5-7 классов)25

Shaykhislamov Nursulton Zamon ugli

Improving the methodology for developing students’ linguistic competencies in mother tongue lessons (based on grades 5-7).....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SHAYXISLAMOV NURSULTON ZAMON O‘G‘LI

**ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LINGVISTIK
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (5-7-SINFLAR MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Ped11572 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.cspu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Davlatova Adiba Raxmatovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Matchonov Sapa Murodovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Shofqorov Abdishukur Musayevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.04.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "5" 06 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.:(+998)70-712-27-55; faks:(+998)70-712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (491 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998)70-712-27-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "25" 05 kuni tarqatildi.

(2026-yil "25" 05 dagi 28 - raqamli reestr bayonnomasi).


U.N.Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor


F.T.Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), dotsent


R.A.Eshchanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda jahonda ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, o'quvchilarda mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish orqali ularning ijtimoiy va kasbiy jihatdan yetuk shaxs bo'lib kamol topishini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, til va adabiyot fanlarining ta'limdagi o'rni beqiyos bo'lib, u nafaqat nutqiy savodxonlik, balki tanqidiy fikrlash, muloqot qilish, fikrni asoslash va ifodalash kabi ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Bu esa lingvistik kompetensiyani rivojlantirish zaruratini kundan-kunga oshirib bormoqda. YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha mo'ljallangan ta'lim strategiyasida har bir o'quvchining funksional savodxonligini, axborotni anglash, tahlil qilish va mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili darslari mazmuni o'quvchilarning tilga oid bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, o'z fikrini aniq va ravon ifodalash, matnlarni tahlil qilish va baholash, ijtimoiy va madaniy kontekstda erkin muloqotga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilishi zarur.

Dunyoda o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish – ularning o'zlashtirgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, turli fikrlar va matnlar ustida ishlash, tahlil qilish, baholash, asoslash, muammoli holatlarda mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi. Bu esa o'quv jarayonida matn bilan ishlash, mantiqiy tahlil qilish, muloqotga kirishish, badiiy-estetik fikrlash singari integrativ yondashuvlarni taqozo etadi. Shuningdek, 5-7-sinflarda lingvistik kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus metodik yondashuvlarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani, amaliy mashg'ulotlar va topshiriqlar tizimining zamonaviy talablarga javob bermasligi ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini kuchaytiradi. Ta'limni yangilashning milliy konsepsiyasida ham til va adabiyot fanlarini zamonaviy metodikalar asosida o'qitish, o'quvchilarda tanqidiy va muloqotga asoslangan fikrlashni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu boisdan, "Ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish (5-7-sinflar misolida)" mavzusidagi ilmiy izlanish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, bugungi ta'lim islohotlari mazmuniga to'liq mos keladi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar o'quvchilarning nutqiy, mantiqiy, tahliliy va estetik fikrlashini chuqurlashtirish, shuningdek, o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Respublikamizda oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bugungi kun ta'limi mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatdan yangi talablar qo'yimoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish va sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyoj, talablari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishga oid ustuvor

vazifalar “Taraqqiyot strategiyasi”da belgilab qo’yildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni hamda ta’limga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, mantiqiy fikrlay olish, madaniyatlararo samarali muloqot qobiliyatiga ega ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash oldimizga qo‘shimcha vazifalar yuklaydi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmonlari va 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida” qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” PQ-4479-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” VM-304-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda so‘nggi yillarda ona tili o‘qitish metodikasiga doir bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, metodist olimlar A.G‘ulomov¹, R.Safarova² va D.Yo‘ldoshevalar tomonidan ona tili o‘qitishning maqsad va mazmunini yangilashning ilmiy-nazariy asoslari mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarda ona tili ta’limining mazmunini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish hamda ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etish masalalari asoslab berilgan.

Shuningdek, Sh.Yusupova³ o‘z tadqiqotlarida ona tilini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish masalalarini yoritgan bo‘lsa, M.Saidov⁴ va

¹ Гулямов А. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного (узбекского) языка: Автореферат. док. пед. наук. – Т.: ТГПИ. – 1991. – С. 37.

² Сафарова Р. Миллий тикланиш шароитида Ўзбекистон мактабларида она тили таълими назарияси ва амалиёти: Пед. фан. докт... дисс. – Т., 1995. – 242 б.

³ Юсупова Ш. Она тили таълими самарадорлигини ошириш ва илғор педагогик технологияларни жорий этиш: Пед. фан. номз... дисс. – Т., 1998. – 137 б.

N.Alavuddinovalar⁵ ona tili o'qitish orqali o'quvchilarda mustaqil ishlash, ijodiy tafakkur va mushohada qilish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan. Ona tilida til sathlarini o'qitish metodikasi bo'yicha ham ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda fonetika, leksika, grammatika va sintaksis materiallarini o'rgatishning didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

T.Yusupovaning ilmiy izlanishlari sohada muhim amaliy ahamiyat kasb etib, mazkur tadqiqot natijalaridan bugungi kunda ona tili ta'limi amaliyotida keng foydalanilmoqda. Ta'kidlash joizki, ona tili o'qitish metodikasiga turli davrlarda filolog-olimlar ham dastur va darslik mualliflari sifatida o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar. Jumladan, F.V.Sharopova⁶, N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, I.K.Mirzayev, D.M.Urmonova⁷, T.Yusupova, U.Masharipova, M.Kenjayeveva kabi olimlar ona tilini o'qitishda o'ziga xos yondashuv zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar.

B.Mengliyev ona tili o'qitishda ortiqcha grammatizmdan voz kechib, o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini takomillashtirish, matn va lug'atlar bilan ishlash asosida ta'lim oluvchilarda milliy tafakkur, milliy til va milliy ma'naviyatni shakllantirish, til sohiblarini turli nutqiy vaziyatlarga tayyorlash hamda ijodiy tafakkurga ega shaxslarni tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, professorlar R.Safarova, X.Muhiddinova⁸, Q.Husanboyeva⁹, K.Mavlonova, M.Mambetova, O'.Nuriddinova, M.A.Kenjayeveva¹⁰ ilmiy tadqiqotlarida ta'limda kommunikativ yondashuv, ilg'or pedagogik texnologiyalar, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodik qarashlar rivojlantirilgan.

Y.G'ulomov, N.Abdurahmonov, E.Rizbayeva, X.Ahmedova, A.G'ulomov, M.Qodirov, B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, B.Qobilova, K.Usmonov, N.Ahmedov, O.B.Qurbonova¹¹, K.M.Rajapova¹², X.A.Suyunova¹³, O.Oxunjonovalarning ilmiy ishlarida ona tili ta'limi mazmunini isloh qilish, nutq va tafakkurni rivojlantirish masalalarida uzluksizlikni ta'minlash, til o'rganishda axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalanish, ta'limda integratsiyani amalga oshirish, turli uslubga xos matn

⁴ Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номз. дисс... автореф. – Т., 2000. – 25 б.

⁵ Алавуद्динова Н. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси: Пед. фан. номз. дисс... автореф. – Т., 2008. – 24 б.

⁶ Sharopova F.V. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari: p.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2025. – 54 b.

⁷ Urmonova D.M. Takrorlash va mustahkamlash darslari asosida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish texnologiyasi (5–7-sinf ona tili darslari asosida): p.f.f.d. (PhD) diss. avtoref.– Andijon, 2024. – 58 b.

⁸ Муҳиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуksизлигини таъминлашнинг илмий методик асосларини такомиллаштириш: Пед.фан.номз...дисс. – Т., 2011. – 270 б.

⁹ Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. докт. дисс... автореф. – Т., 2006. – 262 б.

¹⁰ Кенжаева М.А. 5–6-синф ўқувчиларида лингвистик компетенцияларни ривожлантириш методикаси: п.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 45 б.

¹¹ Курбонова О.Б. 10–11-синф она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш: п.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 45 б.

¹² Ражапова К.М. Нутқий кўникмаларни ривожлантиришга тизимли ёндашишнинг илмий-методик асослари (5–7-синф она тили дарслари мисолида): п.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Жиззах, 2022. – 54 б.

¹³ Суюнова Х.А. Тил таълимига интегратив ёндашув асосида ўқувчиларнинг лингвистик кўникмаларини шакллантириш методикаси (5–9-синф она тили дарслари мисолида): п.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. – Жиззах, 2022. – 49 б.

yaratish, matn bilan ishlash, o'quvchi tafakkurini o'stirish, talaffuz va yozuv masalalari keng tahlil qilingan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida til kompetensiyalarini shakllantirish masalalari ham ilmiy jihatdan o'rganilgan bo'lib, Yevropa miqyosida amalga oshirilgan til kompetensiyalariga oid tadqiqotlar, shuningdek, Rossiya lingvodidaktika maktabi vakillari A.N.Leontev, J.A.Ponomarev, S.L.Rubenshteyn, L.M.Fridman, V.A.Krutetskiy, V.G.Belinskiy, M.T.Baranov, N.Xomskiy va boshqalar tomonidan til o'qitishning psixologik-pedagogik asoslari ishlab chiqilgan, o'qitishning samarali usul va metodlari tavsiya etilgan.

Xorijiy olimlar Sh.Balli, K.Byuller, E.Benvenist, M.Baxtin, J.Ostin asarlarida nutqiy akt nazariyasi ilgari surilib, tilning mavjudligi insonlarning so'zlash va yozish faoliyati bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Shuningdek, D.Heymes, J.K.Katford, Linda I.Haus, J.Las, Samaneh Seedabadi, Azar Hosseini Fatemi, Reza Pishghadam, Robin Tudor, Hyun Ju Kim, Jak Richardslarning ilmiy ishlarida til ta'limini o'qitish muammolari hamda o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish usul va metodlari yoritilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan o'zbek, rus va xorij olimlari hamda metodistlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar biz o'rganishni maqsad qilgan muammoning ayrim jihatlariga doir muhim nazariy va amaliy xulosalarni berganligi bilan ahamiyatlidir. Biroq mazkur tadqiqotlarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish ko'proq alohida til sathlari, nutqiy faoliyat turlari yoki muayyan sinflar doirasida yoritilgan bo'lib, ona tili darslarida 5-7-sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini tizimli, bosqichma-bosqich va metodik jihatdan takomillashtirish masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Mazkur holat ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi va tanlangan yo'nalishda maxsus ilmiy tadqiqot olib borish zaruratini asoslaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ona tili darslari jarayonida 5-7-sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ona tili darslarida lingvistik kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyatini ochib berish va mazmunini aniqlash, uning metodologik asoslarini tadqiq qilish hamda didaktik imkoniyatlarini belgilash;

ona tili darslarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasining takomillashtirilgan modelini ishlab chiqish;

ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini dialogik munozara va amaliy faoliyat asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

taklif etilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish, statistik tahlil qilish va lingvistik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahar Bektemir tumani 293-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Xorazm viloyati Hazorasp tumani 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani 52-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining jami 580 nafar o'quvchilari jalb qilingan.

Tadqiqotning predmeti ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik, pedagogik va metodik vositalar, shakl va usullardir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishining bajarilishida 5-7-sinflarda ona tili fanini o'qitish bo'yicha mavjud o'quv-metodik va ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Dars jarayonlarida olib borilgan kuzatishlar orqali o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish holati o'rganildi. Bunda ularning grammatik bilimlardan foydalanish, matnni tahlil qilish, ifodali nutq qurish ko'nikmalari aniqlash uchun diagnostik topshiriqlar, so'rovnomalar va yozma ishlanmalar tahlil qilindi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan matematik-statistik usullar asosida baholanib, samarador metodik yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy mohiyati kommunikativ, kognitiv va faoliyatli yondashuvlar integratsiyasi asosida asoslab berilgan hamda uning didaktik imkoniyatlari til hodisalarini tizimli o'zlashtirish, grammatik tushunchalarni ijodiy qayta ishlash, lingvistik nazariyalarni amaliy faoliyat bilan bog'lash orqali aniqlashtirilgan;

ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish modeli integrativlik tamoyiliga ko'ra tilshunoslik fanining turli jihatlarini uyg'unlashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida kommunikativ va kognitiv vazifalarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativlik va interfaol metodlardan foydalanishga urg'u berish hamda til bilimlarini hayotiy tajribalar bilan bog'lash asosida takomillashtirilgan;

ona tili darslarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi kommunikativ va kreativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan dialogik munozara usullari, kichik guruhlarda o'quv loyihalari yaratish texnologiyasi, til o'yinlari orqali grammatik tushunchalarni amaliy jihatdan mustahkamlash hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va til madaniyatini shakllantirishni ustuvorlashtirish asosida takomillashtirilgan;

ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash, olingan natijalarni bosqichma-bosqich statistika asosida baholash, lingvistik bilimlarni amaliy muloqot vaziyatlarida qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda til va nutq faoliyatiga ongli munosabatni mustahkamlashning yangi mezon va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishning strukturasi va asosiy komponentlari aniqlandi;

“Til va nutq” mavzulari bo'yicha interaktiv mashqlar, reflektiv yozma topshiriqlar, tilshunoslikga oid terminlarning izohli lug'ati ishlab chiqildi;

ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan “O'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi” nomli o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi;

o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlandi va ularning kasbiy faoliyatiga joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo'llanilgan yondashuv va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plamlari, OAK e'tirof etgan respublika va xorijiy jurnallarda chop qilingan maqolalar, metodik qo'llanmalar, keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishga doir nazariy asoslar, pedagogik model va taklif etilgan metodik yondashuvlar tilshunoslik didaktikasini rivojlantirishga xizmat qiladi;

Amaliy ahamiyati – ishlab chiqilgan metodik vositalar va tavsiyalar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili darslarini zamonaviylashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirishda keng qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ona tili darslarida lingvistik kompetensiyani shakllantirish metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqot davomida ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-7-sinflarida ona tili fanidan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda matn bilan ishlash, grammatik tahlil, ifodali nutq va yozma faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriq va mashqlar tizimi, shuningdek, interfaol metodlarga asoslangan pedagogik model asosida o'quvchilar faoliyatini individuallik va bosqichma-bosqichlik tamoyillari asosida tashkil etish bo'yicha taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170913120-sonli “Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi O'zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 25-sentyabrdagi 01/11-20231-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarda matn asosida tanqidiy fikrlash, mazmuni tahlil qilish, grammatik va leksik birliklardan amaliy foydalanish, o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq ifodalashga oid ko'nikmalarning shakllanishiga erishilgan;

ona tili darslarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi kommunikativ va kreativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan dialogik munozara usullari, kichik guruhlarda o'quv loyihalari yaratish texnologiyasi, til o'yinlari orqali grammatik tushunchalarni amaliy jihatdan mustahkamlash hamda o'quvchilarda

mustaqil fikrlash va til madaniyatini shakllantirishni ustuvorlashtirish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining 2025-yil fevral va aprel oylaridagi “Adabiy jarayon”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Ta’lim va taraqqiyot” dasturlarini tashkil etishda hamda ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 4-avgustdagi 05-09-1268-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur ko‘rsatuvlar orqali ta’lim sohasi mutaxassislari, o‘qituvchilar va keng jamoatchilik uchun lingvistik kompetensiya bo‘yicha pedagogik tavsiyalar ommalashtirilgan;

tadqiqotda ishlab chiqilgan lingvistik kompetensiyani shakllantirishga oid mezonlar, bosqichlar va baholov indikatorlari asosida tuzilgan differensial diagnostik vositalar bo‘yicha taqdim etilgan takliflar O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789-sonli “O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 9-oktyabrdagi 04/11-22062-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, yangi darslik va o‘quv-metodik majmualarda o‘quvchilarning funksional savodxonligi va lingvistik kompetensiyasini integratsiyalashgan holda shakllantirishga qaratilgan topshiriqlarning soni va sifati oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 149 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, o‘rganilayotgan masalaning umumta’lim maktablarida ona tili fanlarini o‘qitishdagi ahamiyati yoritilgan. Unda tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniq tavsiflangan, mavzuning O‘zbekiston Respublikasida ta’limni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlariga, ayniqsa, o‘quvchilarda funksional savodxonlik, til va nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq davlat dasturlariga muvofiqligi asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, erishilgan amaliy natijalar, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati, tajriba-sinov ishlari, natijalarni amaliyotga joriy qilish mexanizmlari, muallifning nashr qilingan ilmiy ishlari va dissertatsiya tuzilmasi haqida ma’lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning “Ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari” deb nomlangan birinchi bobida lingvistik kompetensiya tushunchasi, tarkibi va ilmiy-nazariy asoslari, lingvistik kompetensiyani shakllantirishning xorijiy va milliy pedagogik tajribasini qiyosiy tahlili, ona tili darslarida o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishning zaruriyati va metodik imkoniyatlari kabi masalalar keng va chuqur tahlil qilingan. Bobda, avvalo, O‘zbekiston ta’lim siyosati doirasida lingvistik kompetensiya tushunchasining nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan.

Lingvistik kompetensiya tushunchasi ilk bor N.Xomskiy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, keyinchalik D.Heymes uni umumiy kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida kengaytirgan. Mahalliy tadqiqotchilar A.Mahmudov, Sh.Shodmonov, N.Jo‘rayev esa uni til tizimi haqidagi nazariy bilimlar, nutqiy malakalar hamda psixolingvistik jarayonlar integratsiyasi sifatida talqin etadilar.

Tadqiqot doirasida lingvistik kompetensiya tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: Lingvistik kompetensiya – shaxsning til birliklari va qonuniyatlari haqidagi bilimlarni egallashi, ularni nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo‘llay olishi, til hodisalarini ongli ravishda tahlil qilib, o‘z nutqiy faoliyatini refleksiv nazorat asosida boshqara olish qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifattir. Mazkur ta’rifdan kelib chiqib hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayangan holda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-7-sinf o‘quvchilari uchun lingvistik kompetensiya tarkibini shartli ravishda olti asosiy ko‘nikmalar blokiga ajratish va ularni tizimlashtirish maqsadga muvofiq (1-rasm).




1-rasm. 5-7-sinf o‘quvchilari lingvistik kompetensiyasining tarkibiy tasnifi

1-rasmda ifodalanganidek, ushbu olti komponentning rivojlanishi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadi. Amaliyotda kommunikativ, kognitiv va faoliyat yondashuvlari uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanib, o‘quvchilarda matn asosida tahlil qilish, nutqiy vazifalarni bajarish, ijodiy mahsulot yaratish va refleksiya qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Natijada, lingvistik kompetensiya shunchaki grammatik bilimlar majmuigina emas, balki shaxsning kommunikativ ehtiyojlari, motivatsiyasi va ijtimoiy-madaniy tajribasini birlashtirgan murakkab pedagogik-psixolingvistik hodisa sifatida ro‘yobga chiqadi.

Amaliyotda kommunikativ, kognitiv va faoliyat yondashuvlari uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanib, o‘quvchilarda matn asosida tahlil qilish, nutqiy vazifalarni bajarish, ijodiy mahsulot yaratish va refleksiya qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Natijada, lingvistik kompetensiya grammatik bilimlar majmuigina emas, balki shaxsning kommunikativ ehtiyojlari, motivatsiyasi va ijtimoiy-madaniy tajribasini birlashtirgan murakkab pedagogik-psixolingvistik hodisa sifatida talqin etiladi.

Lingvistik kompetensiyani rivojlantirish borasidagi xorijiy mamlakatlar va O‘zbekiston ta‘lim tizimi tajribalari qiyosiy tahlil qilingan. O‘zbekistonda lingvistik kompetensiya rivojlanishi bosqichma-bosqich kechgan: dastlab grammatik-tarjima metodi ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik kommunikativ va integrativ yondashuvlar joriy etildi. Mustaqillikdan so‘ng interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar va raqamli resurslar ta‘lim jarayoniga keng tatbiq qilina boshlandi. Mahalliy olimlar A.M.Mahmudov, Sh.Shodmonov, N.Jo‘rayev, G‘.Abdurahmonov, Sh.Normatov, M.To‘xtaxo‘jayev, D.Tursunova va boshqalarning ilmiy ishlari bu jarayonning nazariy-metodik asoslarini yaratib, lingvistik kompetensiyani kommunikativ, psixolingvistik va raqamli yondashuvlar integratsiyasi orqali rivojlantirishni asoslab berdi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tajribalarda shakllangan kommunikativ va integrativ metodlar, CLIL 4C modeli hamda raqamli texnologiyalarni milliy ta‘lim sharoitlariga moslashtirish O‘zbekiston ta‘lim tizimida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday integratsiya nafaqat til bilimlarini, balki tanqidiy fikrlash, muloqot, ijodkorlik va hamkorlik kabi XXI asr kompetensiyalarini ham rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat etadi. Quyida keltirilgan diagramma CLILning ushbu 4C modelini vizual tarzda ifodalaydi hamda har bir komponentning mazmuni va ta‘lim jarayonidagi o‘rnini ko‘rsatadi (2-rasm).




2-rasm. CLILning integratsiyalashgan 4C modeli

Shuningdek, lingvistik kompetensiyaning zamonaviy ta‘limdagi dolzarbligi hamda uni ona tili darslarida shakllantirishning metodik imkoniyatlari asoslab berilgan. Globalashuv, raqamli texnologiyalar va madaniyatlararo muloqot sharoitida

lingvistik kompetensiya o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan tayanch kompetensiya sifatida qaraladi. U nafaqat grammatik bilimlarni, balki kommunikativ savodxonlik, nutq madaniyati, mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati hamda raqamli savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda lingvistik kompetensiyaning shaxsiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ahamiyati yoritilib, uning kognitiv tayanch (metatilingvistik ong, mantiqiy bog'lanish, dalillash), ijtimoiy kapital (nutq etiketi, murosa, bahs-munozara), madaniy identitet va tolerantlik, raqamli fuqarolik (axborot xavfsizligi, multimodal savodxonlik)ni shakllantirishdagi o'rni ko'rsatilgan. Lingvistik kompetensiyani samarali rivojlantirish uch asosiy omilga tayanadi: metodik dizayn (kommunikativ, integrativ va matn markazli yondashuvlar asosida qurilgan darslar), texnologik infratuzilma (interaktiv doska, multimodal resurslar, raqamli platformalar, CLIL va TBLT metodlari) va psixologik muhit (xavfsiz muloqot, motivatsiya, inklyuziya, feedforward asosidagi konstruktiv aloqa). Shuningdek, DTS, o'quv dasturi va darslik-qo'llanma majmuasining uyg'unligi ta'lim jarayonini "maqsad-mazmun-metod-baholash" zanjirida samarali tashkil etishga imkon beradi. Shunday qilib, metodik, texnologik va psixologik sharoitlarning integratsiyasi ona tili darslarini lingvistik kompetensiyani rivojlantiruvchi samarali pedagogik maydonga aylantiradi. Natijada, o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki real hayotiy, akademik va kasbiy vaziyatlarda samarali muloqot qila oladigan, ijodkor va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish**" deb nomlanib, unda ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish modeli, lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida kreativ va interfaol metodlardan foydalanish metodikasi, lingvistik kompetensiyani shakllantirish uchun didaktik materiallarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish metodikasi bo'yicha tavsiyalar bayon qilingan. Dissertatsiyaning 2.1-paragrafidagi "**Ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish modeli**" ishlab chiqilib, uning nazariy asoslari, metodik tamoyillari va amaliy mexanizmlari yoritildi (3-rasm). Globallashuv va axborot oqimining tezkor sur'atlarda kengayishi zamonaviy ta'lim tizimidan faqat nazariy bilimlarni yetkazishni emas, balki ushbu bilimlarni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llay oladigan, mustaqil fikrlovchi, ijodkor va kommunikativ jihatdan faol shaxsni tarbiyalashni talab qilmoqda. Ayniqsa, 5-7-sinflar bosqichi o'quvchining til va nutq qobiliyatlari shakllanishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, ona tili darslarida ishlab chiqilgan lingvistik kompetensiyani shakllantirish modeli mazkur strategik vazifani amalga oshirishga yo'naltirilgan. Model tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslanib, ilmiylik, uzviylik, kommunikativlik, individuallik va faollik tamoyillariga tayanadi. Ushbu model uch asosiy tarkibiy bo'g'indan iborat: maqsadli blok, tashkiliy blok va natijaviy blok. Maqsadli blok o'quvchilarda motivatsion (til va fanlarga qiziqish), kognitiv (nazariy bilimlarni egallash) hamda metakognitiv (o'z faoliyatini boshqarish, o'zini nazorat qilish) komponentlarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Tashkiliy blok o'quv-nazariy, o'quv-amaliy va o'quv-metodik bosqichlar orqali lingvistik bilimlarni izchil o'zlashtirish va amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish mexanizmini belgilaydi. Natijaviy blok esa o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini aniq mezonlar asosida baholash, rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda kutilgan natijalarni aniqlashni o'z ichiga oladi.



3-rasm. Ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish modeli


Tashkiliy blok o'quv-nazariy, o'quv-amaliy va o'quv-metodik bosqichlar orqali lingvistik bilimlarni izchil o'zlashtirish va amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish mexanizmini belgilaydi. Natijaviy blok esa o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini aniq mezonlar asosida baholash, rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda kutilgan natijalarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Maqsadli blokda o'quvchilarda lingvistik bilimlarni puxta egallash, ularni kommunikativ vaziyatlarda samarali tatbiq etish hamda ijodiy yondashuvni shakllantirish asosiy vazifa qilib belgilandi. Motivatsion komponent fanga bo'lgan qiziqish va ichki ehtiyojni kuchaytirishga, kognitiv komponent nazariy bilimlarni izchil egallashga, metakognitiv komponent esa o'z-o'zini baholash va nazorat qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, model o'quvchilarni faqat bilim oluvchi emas, balki faol bilim yaratuvchi, ijodkor va tanqidiy tafakkur sohibi sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. Tashkiliy blok o'quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish orqali samaradorlikni ta'minlaydi. O'quv-nazariy bosqichda o'quvchilar grammatik, leksik va uslubiy bilimlarni o'zlashtiradilar. O'quv-amaliy bosqichda bu bilimlar turli nutqiy faoliyatlarda – matn tahlili, dialog va munozaralarda qo'llanadi. O'quv-metodik bosqichda esa differensial va individual yondashuv asosida o'quvchilarning qobiliyatlari rivojlantiriladi, ijodiy topshiriqlar, loyihaviy ishlanmalar va mustaqil tadqiqotlar bajariladi.

Natijaviy blok modelning samaradorligini ko'rsatib beruvchi mezon va darajalarni belgilaydi. Baholash motivatsion, kognitiv-funksional va reflektiv mezonlar asosida olib boriladi. O'quvchilarning lingvistik kompetensiyalari quyi, o'rta va yuqori darajalar bo'yicha aniqlanib, individual rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi. Bunda nafaqat bilim hajmi, balki ularni amaliyotda qo'llash, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ham inobatga olinadi.

Modelni samarali tatbiq etish uchun interfaol metodlar, raqamli resurslar, CLIL va TBLT kabi zamonaviy texnologiyalar, shuningdek, interaktiv doska, multimedia vositalari, elektron lug'atlar va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlangan moddiy-texnik baza muhim omil sifatida belgilandi. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy malakasi va zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish tajribasi ham model samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, ishlab chiqilgan model lingvistik kompetensiyani shakllantirishda nazariya va amaliyot birligini ta'minlaydi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va kommunikativ faoliyatini rivojlantirish uchun zarur sharoit yaratadi. Bu esa o'quvchini zamonaviy ta'lim muhitida faqat bilim egasi emas, balki mustaqil qaror qabul qiluvchi, ijodkor va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning 2.2-paragrafida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida kreativ va interfaol metodlardan foydalanishning metodik asoslari yoritildi. An'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, mazkur metodlar o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, unda mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur va kommunikativ madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Kreativ metodlar – ijodiy yozuv, matnni qayta yaratish, “aqliy hujum” kabi usullar – o'quvchilarda noodatiy yondashuv asosida yangi g'oyalar ishlab chiqish, matnni qayta talqin etish va til vositalaridan estetik hamda samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Interfaol metodlar esa – debat, keys-stadi, klaster, guruh ishlari – o'quvchi va o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasida hamkorlik, erkin

muloqot va fikr almashish muhitini yaratadi. Mazkur metodlarning uyg'un qo'llanishi o'quvchilarda motivatsion (fanga qiziqish), kognitiv (bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish) hamda metakognitiv (o'z faoliyatini boshqarish va tahlil qilish) komponentlarning izchil rivojlanishiga imkon beradi. Shu tariqa, ona tili ta'limida kreativ va interfaol metodlardan kompleks foydalanish lingvistik kompetensiyani shakllantirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, klaster metodi o'quvchilarda mavzularni tizimlashtirish, asosiy tushunchalarni mantiqiy bog'lash va ulardan real nutqiy vaziyatlarda foydalanish ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, "Bog'lovchilar va ularning qo'llanishi" mavzusi bo'yicha tuzilgan klaster yordamida o'quvchilar bog'lovchilarning turlari (teng, ergashtiruvchi, takror), ularning nutqdagi vazifalari hamda misollarini aniqlash imkoniga ega bo'ladilar (4-rasm). Bu esa mavzuni ko'rgazmali tarzda o'zlashtirish, bilimlarni mantiqan tartibga solish va ularni amaliyotda ongli qo'llashga xizmat qiladi. Shunday qilib, kreativ va interfaol metodlar uyg'unligida tashkil etilgan dars jarayoni o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va kommunikativ faoliyatni rivojlantirish bilan birga, lingvistik kompetensiyaning barqaror shakllanishini ta'minlaydi.



4-rasm. "Bog'lovchi" mavzusiga doir klaster sxemasi

Dissertatsiyaning 2.3-paragrafida lingvistik kompetensiyani shakllantirishda didaktik materiallardan samarali foydalanishning metodik asoslari yoritildi. Didaktik materiallar o'quvchilarning nazariy bilimlarini real muloqot vaziyatlari bilan bog'lab, bilim–ko'nikma–malaka zanjirini mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlandi. Ularning matnga asoslangan, interfaol, multimodal va differensiallashtirilgan turlari o'quvchilarda tahliliy fikrlash, mantiqiy dalillash, nutqiy madaniyat, ijodiy yondashuv va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslab berildi. Paragrafda, xususan, 5-sinf ona tili darsligidagi "Hayitlik" hikoyasi asosida tashkil etilgan debat hamda "E'lonlar" mavzusiga oid keys-stadi namunasi tahlil qilinib, didaktik materiallarning kreativ va interfaol metodlar bilan uyg'un

qo'llanilishi samaradorlikni sezilarli oshirishi ko'rsatildi. Shuningdek, baholash jarayonining mezon–indikator–daraja tamoyili asosida tashkil etilishi, portfoliolar, o'zaro baholash va o'zini baholash mexanizmlaridan foydalanish o'quvchilar rivojlanishini izchil kuzatish imkonini berishi qayd etildi.

Umuman olganda, ikkinchi bobda ishlab chiqilgan model, kreativ va interfaol metodlar hamda didaktik materiallarning uyg'un qo'llanishi o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish uchun samarali shart-sharoit yaratishi ilmiy asoslab berildi. Ushbu yondashuv natijasida o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqish va motivatsiya kuchayadi, og'zaki va yozma nutqiy faollik ortadi, ijodiy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi, shuningdek, real kommunikativ vaziyatlarda tilni ongli va samarali qo'llash malakalari shakllanadi. Mazkur model o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, ijodkor va kommunikativ jihatdan faol shaxs sifatida tarbiyalashning samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini tajriba-sinov orqali tekshirish”** deb nomlanib, u tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning metodik asoslari, bosqichlari va shart-sharoitlari, tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili va lingvistik kompetensiyani shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish bag'ishlangan.

Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda Toshkent shahar Bektemir tumani 293-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Xorazm viloyati Hazorasp tumani 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumani 52-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablari tanlab olindi. Bu bosqichda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga oid ilmiy-metodik manbalarni o'rganish va tadqiqotning nazariy poydevorini yaratish ishlari olib borildi. Xususan, pedagogika va psixologiya fanlarida o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga doir klassik va zamonaviy adabiyotlar tahlil qilinib, ilg'or tajribalar o'rganildi. Olingan xulosalar asosida 5-7-sinf ona tili darsliklaridagi mavzularga mos didaktik materiallar va maxsus topshiriqlar ishlab chiqildi. Jumladan, har bir sinf darajasi uchun grammatik bilimlarni nutqiy faoliyatga tatbiq etish, matn mazmunini tahlil qilish, mantiqiy va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni targ'ib qiluvchi mashq va topshiriqlar tayyorlandi. Shuningdek, tajriba o'tkaziladigan maktablarda kuzatuvlar o'tkazilib, ularning moddiy-texnik bazasi, o'qituvchilar tarkibining malakasi atroflicha o'rganildi. Bu tahlillar natijasida tajriba uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar (masalan, sinfxonalar, texnik vositalar, o'quv-qurollar) mavjudligi va ehtiyojlar aniqlab olindi. Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirishdan oldin o'quvchilarning dastlabki lingvistik bilim darajasi va nutqiy ko'nikmalari maxsus diagnostik topshiriqlar orqali tekshirildi. Mazkur tayanch diagnostika natijalari keyingi bosqichlarda erishiladigan yutuqlarni baholash uchun mezon vazifasini o'tadi.

Ikkinchi (shakllantiruvchi) bosqich. Bu bosqich tajriba-sinov ishlarining asosiy va eng muhim qismidir. Ushbu davrda bevosita tanlab olingan tajriba guruhlarida yaratilgan yangi metodikani joriy etish orqali amaliy darslar olib borildi, nazorat guruhlarida esa an'anaviy usulda ta'lim davom ettirildi. Tajriba guruhlarida ona tili fanidan lingvistik kompetensiyani shakllantirish metodikasining tarkibiy qismlari (2-bobda bayon qilingan model, interfaol metodlar va didaktik materiallar) tizimli

